

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Маҳмудова Дилафруз Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH 61-69

Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажоновна Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIJY DAVLATLARNING O'RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

| | |
|---|---------|
| <i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ | 121-127 |
| <i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ | 128-136 |
| <i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 137-145 |
| <i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI | 146-150 |
| <i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI | 151-159 |
| <i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS | 160-169 |
| <i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI | 170-177 |
| <i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI | 178-183 |
| 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ | |
| <i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI | 184-189 |
| <i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI | 190-198 |
| <i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ | 199-206 |
| <i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI | 207-220 |
| <i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ | 221-227 |
| <i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI | 228-232 |
| <i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI | 233-238 |

| | |
|--|---------|
| <i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI | 239-245 |
| <i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI | 246-252 |
| <i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI | 253-257 |
| <i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ | 258-265 |
| <i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI | 266-270 |
| <i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR | 271-275 |
| <i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА | 276-282 |
| <i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 283-287 |
| <i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION | 288-293 |
| <i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН | 294-302 |
| <i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION | 303-307 |
| <i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАСНА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI | 308-314 |
| 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ | |
| <i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ | 315-320 |
| <i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLID) | 321-327 |

| | |
|--|---------|
| <i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES | 328-334 |
| <i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH | 335-340 |
| <i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR | 341-346 |
| <i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI | 347-351 |
| <i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA | 352-356 |
| <i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI | 357-366 |
| <i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION | 367-370 |
| <i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE | 371-375 |
| <i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI | 376-380 |
| <i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE | 381-386 |
| <i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA | 387-392 |
| <i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ | 393-395 |
| 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР | |
| <i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI | 396-402 |
| <i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ | 403-409 |
| <i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS | 410-415 |

| | |
|---|---------|
| <i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) | 416-428 |
| <i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ | 429-438 |
| <i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 439-445 |
| <i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ | 446-453 |
| 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ | |
| <i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 454-458 |
| <i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ | 459-463 |
| <i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ | 464-470 |
| <i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI | 471-477 |
| <i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI | 478-482 |
| <i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA | 483-486 |
| <i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI | 487-492 |
| <i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI | 493-497 |
| <i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH | 498-501 |
| <i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ | 502-507 |
| <i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI..... | 508-514 |

| | |
|--|---------|
| <i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ | 515-523 |
| <i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ | 524-533 |
| <i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ | 534-541 |
| <i>Амонов Mirjon Namozovich</i> IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI | 542-547 |
| <i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI | 548-552 |
| <i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH | 553-560 |
| <i>Hakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH | 561-565 |
| <i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE) | 566-570 |
| <i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI | 571-576 |
| <i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI | 577-585 |
| <i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI | 586-590 |
| <i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI | 591-596 |
| <i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION | 597-603 |
| <i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE] | 604-616 |

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING
O'RNATISH 617-622

Atoyeva Gulshoda Rabimovna

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI 623-628

Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI 629-635

Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES 636-641

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

**“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI
DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI**

Annotatsiya. Maqolada “Gulshanul muluk” (“Shohlar gulshani”) asarining mang'itlar davri tarixini o'rganishdagi ahamiyati, unda zikr qilingan tarixiy ma'lumotlarning tarixiy davr naqta nazaridan mang'it hukmdorlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qamariy yil hisobi, fors tilida, nasta'liq xat, islomiy kitobat usuli, hijrat, g'azotlar, buvayhiylar, saljuqiylar, xorazmshohiylar, otabekiylar, ismoiliylar

Hamroyev Asliddin Umed ugli
Teacher of Bukhara State University

**THE WORK “GULSHANUL MULUK” (“KINGS' GULSHAN”) IS AN EXAMPLE OF
HISTORIOGRAPHY DURING THE REIGN OF THE MONGOLS**

Abstract. The article discusses the importance of the work “Gulshanul Muluk” (“Kings Gulshan”) in the study of the history of the Mangite era, the valuable information about the Mangite rulers from the point of view of the historical period.

Key words: Lunar year calculation, in Persian, nastaliq khat, Islamic method of reading, migration, Ghazats, Buwayhis, Seljuks, Khorezmshahis, Atabeks, Ismailis

Хамроев Аслиддина Умед угли
Преподаватель Бухарского государственного университета

**ПРОИЗВЕДЕНИЕ «ГУЛЬШАНУЛ МУЛУК» («ЦАРСКИЙ ГУЛЬШАН») ПРЕДСТАВЛЯЕТ
СОБОЙ ОБРАЗЕЦ ИСТОРИОГРАФИИ ПЕРИОДА ПРАВЛЕНИЯ МОНГОЛОВ**

Аннотация. В статье рассматривается значение труда «Гульшанул Мулук» («Цари Гульшан») в изучении истории мангитской эпохи, приводятся ценные сведения о мангитских правителях с точки зрения исторического периода.

Ключевые слова: расчет лунного года, на персидском языке, насталик хат, исламский метод чтения, миграция, газаты, бувайхи, сельджуки, хорезмшахи, атабеки, исмаилиты

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N01>

Tarixdan ma'lumki, Buxoro davlatini boshqargan so'ngi hukmdor sulola vakillari mang'itlar bo'lib, (1756-1920) ular boshqaruvi to'g'risida tarixda turlicha yondashuvlar mavjud. Mazkur sulola davri tarixi ancha yaxshi o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan o'sha

davrda yozilgan bir qancha tarixiy mavzudagi asarlar hali o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinmagan. Bular qatoriga Jumaquli Xumuliyning "Tarixi Xumuliy", "Tarixi manzum" Mirzo Shams Buxoriyning "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Qo'qand va Qoshg'ar" ("Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arda kechgan ayrim hodisalar bayoni") Muhammad Ya'qub Buxoriyning "Gulshanul muluk" ("Shohlar gulshani") kabilar va yana boshqa asarlarni aytib o'tish mumkin.

Mazkur asarlarning har biri o'ziga xos tarzda yozilgan bo'lib, bu o'ziga xoslik asarning mundariyasi, yozilish uslubi va qamragan davrida ko'zga tashlanadi. Ularda nafaqat o'sha davr voqea-hodisalari, tarixiy vaziyat, ijtimoiy-siyosiy hayotda kechgan jarayonlar, balki Buxoroda hukmdorlik qilgan sulola vakillarining shaxsiy hayoti, xarakter xususiyati, shuningdek, ular bilan bog'liq qiziqarli voqealar bayoni ham keltirilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda mazkur asarlarni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish hamda ulardan keng jamoatchilikni xabardor qilish imkoniyatlari katta.

Yuqorida nomlari sanalgan asarlar orasida "Gulshanul muluk" asari o'zining qamrovi kengligi bilan ajralib turadi. Uning muallifi Muhammad Ya'qub mang'itlar sulolasining asoschilaridan biri Doniyolbiyning o'g'li bo'lib, asarda tilga olingan voqealarning asosiy qismiga o'zi guvoh bo'lgan. Shuningdek, sulola vakili sifatida davlatda kechgan siyosiy jarayonlarning mohiyati va sabablarini yaxshi bilgan. Shu nuqtai nazardan qaralsa, asarning tarixiy voqealarni tadqiq qilishdagi ahamiyati katta ekanligi ma'lum bo'ladi.

Asarning o'ziga xos uslubi shunda ko'rinadiki, tarix ibtidosini boshqa muarrixlar kabi Odamning yaratilishidan boshlamagan, balki Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) tug'ilishi, nasl-nasabi va payg'ambarligining e'lon qilinishidan boshlagan. Bu Muhammad Ya'qub Buxoriyning qamariy yil hisobi bilan tarixni islomiy mazmunga qorib tushuntirmoqchi bo'lganligini anglatadi.

Asarning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti fondida № AR-1507-3 raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi 325 betdan iborat bo'lib, fors tilida, nasta'liq xat turida yozilgan. Mavzular, hukmdorlar nomlari va asosiy mazmuni ifodalovchi so'zlar qizil rangda yozilgan. Mazkur asar bir nechta asar jamlangan jildda bo'lib, boshlanishi 120-betdan boshlangan.

Asar o'rta asrlar va islomiy kitobat usuliga rioya qilingan holda, ya'ni avval Allohga hamd, keyin payg'ambarga salovot aytilganidan so'ng "Ammo ba'd" kirish so'zi orqali maqsadga o'tilgan. Muarrix avvalo, o'zini tanishtiradi:

پوشیده و مستور نماند که این فقیر بی بضاعت و حقیر خالی از استطاعت محمد یعقوب بن امیر ذوی الاحترام عالی مقام ظفرقرین نظام الملة و الدین امیر کبیر محمد دانیال بی آتالیق نور مرقدہ غفر الله تعالی ذنوبهما و ستر عیوبهما چنین گوید که بعون خالق بیچون این رساله تألیف نمودم [1.120]

"Noma'lum va yopiq qolmasinki, bu hech vaqosiz faqiru haqir, beiqtidor banda Muhammad Ya'qub ehtrom egasi, oliy maqom va zafar sohibi, millat va din nizomi, ulug' amir Muhammad Doniyolbiyning o'g'li (Alloh uning qabrini nurga to'ldirsin va ikkisining ham gunohlarini mag'firat qilib, ayblarini bekitsin) shunday deydi: "Qanday, qanaqa sifatlarga sig'mas Xoliq zotning yordami bilan bu risolani ta'lif qildim".

Risolani payg'ambar s.a.v. zamonidan boshlaganini va uni "Gulshanul muluk" ("Shohlar gulshani") deb nomlaganini hamda asarni 1240 (1825) yilda, amir Haydar hukmronligi davrida bitganini aytib o'tadi. Shundan so'ng payg'ambar s.a.v.ning tavallud topishi, nasabini keltiradi. Payg'ambarligining boshlanish, Madinaga hijrat, g'azotlar, vafot topishi va undan keyingi to'rt xalifa hukmronligini qisqacha bayon qiladi.

Muhammad Ya'qubning o'ziga xos muarrixlik uslubi boshqa tarixnavislar kabi to'rt xalifadan keyin umaviylarga o'tib ketmasdan Ali ibn Abu Tolib avlodi bo'lgan o'n ikki imomning hukmronlik davriga ham to'xtalgan. Bu uslub ahli sunna val jamoaning hanafiylik mazhabi asoslari qat'iy o'rnatilgan joyda bo'lishi e'tiborga loyiq. Buni quyidagicha tushunish mumkin:

1. Buxoroda diniy mutaassiblik emas, balki diniy bag'rikenglik an'analari ustuvor bo'lgan.

2. Nodir Afshor davrida Buxoroga kelib, hukumat mansab lavozimlarida ishlab kelayotganlarning nufuzi baland va ijtimoiy-siyosiy hayotda ta'siri katta bo'lgan.

Umaviylar, marvoniylar tarixini bayon qilgach, xalifalikning abbosiylarga o'tishini alohida "Zikri intiqoli mulk az Bani Umayya ba Bani Abbas" ("Mulkning umaviylardan abbosiylarga o'tishi") deb nomlangan mavzu qiladi. Abbosiylarning xalifalarini nomma-nom sanab, ularning har biri to'g'risida, hukmronligi davrida ro'y bergan asosiy voqea-hodisalarni bayon qiladi. Shundan so'ng g'aznaviylarning taxt tepasiga kelishini yozadi. G'aznaviylar asoschisi sifatida Alp Teginni ko'rsatadi va "U amir Nuh Somoniyning umarolaridan edi" [1.147], deb eslaydi.

Keyingi ketma-ketlikda saljuqiylar, xorazmshohiylar, otabekiylar, ismoiliylar haqida ham qiziqarli voqealarni keltirib tarixini aytib o'tgach, "Chingizxon va uning avlodlari" nomi ostida mavzu qo'yadi va Chingizxonning to'rt o'g'lining nomini zikr qilib, ularning har birining avlodidan saltanat taxtiga o'tirganlarni sanab o'tadi. Chingiziy hukmdorlarning ma'naviy portretini aniqroq tasvirlash maqsadida ular bilan sodir bo'lgan ahamiyatli hikoyalarni keltiradi. Masalan, Halokuxon haqida yozayotganida uning adolatli bo'lishi bilan birga ilmga, ayniqsa, Zij ilmiga qiziqishi katta bo'lganini yozadi. Halokuxonning o'sha davrning yirik olimlaridan biri Nasiruddin Tusiya Zij, ya'ni yangi kalendar tuzish topshirig'ini berganini, unga yordam berish maqsadida Damashq, Mosul, Qazvin va Tiflisdan bir necha yirik olimlarni jalb qilib keltirganini yozadi.

"Gulshanul muluk" asari orqali biz Muhammad Ya'qubning tarixdan tashqari tarixiy shaxslar orasida olimlarga muhabbati kuchli shaxs ekanligini anglashimiz mumkin. U Nasiruddin Tusiya alohida mavzu bag'ishlaydi va uni "vahidi asr va faridi dahr" ("asrda yagona va dunyoda bitta") deb ataydi.

Muhammad Ya'qub chingiziy hukmdorlarni ham sanab, Amir Temurga navbat kelganda uni ulug'lovchi sifatlar bilan alohida "Dar bayoni holoti amiri sohibqiron Amir Temur Ko'ragon" ("Sohibqiron amir Amir Temur Ko'ragon holatlari bayonida") nomi ostida mavzu belgilaydi. Unda Amir Temurni "sohibqironi zamon", "kadxudoyi jahon" kabi sifatlar bilan ulug'laydi va u beshinchi avlodi Qarochor no'yon orqali Chingizxonning amakizodasi ekanligini aytadi. Amir Temurning nasabini otasi Tarog'oy Bahodirdan Tuminaxongacha sanab keladi. Chingizxon o'g'li Chig'atoyga Movarounnahrni mulk qilib berganida Qarochoarga Shahrizabz shahrining hukumatini berganini va uning avlodi bu joylarni vatan qilganliklarini yozadi.

Muhammad Ya'qub o'z asarida tilga olgan hukmdorlarga nisbatan Amir Temurga katta joy ajratadi. Uning yurishlarini birma-bir keltirib, zarur topgan o'rinlarda, "bayt", "ta'rix", "hikoyat" va "ovardaand ki" kabi bosh so'zlar orqali turli she'rlar, hikoyalar va voqealardan foydalanadi. Temurning O'trorda vafot topishini yozgandan so'ng unga bag'ishlangan she'riy ta'rixlarni keltiradi. Temurdan keyingi taxt mojarolari to'g'risida to'xtalib o'tadi va temuriylarning birinchisi sifatida Xalil Sultonni ko'rsatib, uning taxtga da'vo qilganidan jangda yengilib, Xo'jandda hibsga saqlangani, Shohruxmirzo Movarounnahrni o'g'li Ulug'bekka

bergach uni o'zi bilan Hirotga olib ketgani, keyinroq Iroqning Ray shahriga o'n ming askarga boshliq qilib yuborgani, u o'sha yoqda vafot etgani to'g'risida yozadi.

Muhammad Ya'qub temuriylar to'g'risida ham ancha ma'lumot berib, asosiy taxt vorislarini bayon qiladi. Mironshoh, Shohruh va ularning avlodidan saltanat qurganlarni sanaydi. Mirzo Ulug'bekni o'g'li Abdullatif Mirzo Abbosning qo'li bilan qatl qildirganini yozib, Abdullatifni barcha muarrixlar qatori padarkush deb nomlaydi.

Temuriylardan Abu Said mirzoni "yaxshi xislatlar sohibi" deb zikr qiladi. Husayn Boyqaro davlatining Muhammadxon Shayboniy tomonidan egallanishini yozar ekan, bu voqeadan oldinroq Alisher Navoiy vafot etganini yozadi hamda bu to'g'rida aytilgan she'riy ta'rix keltiradi:

Ta'rix:

میر خورد صفت میر علی شیر کہ او
رخت بر بست ازین زاویہ پر محنت
سال تاریخ وی از منزل او پرسیدم
آمد آواز ز فردوس کہ جنت جنت [1.232]

Mazmuni:

Quyoshsifat amir Mir Alisher

Bu purmashaqqat zoviyadan safar qildi.

Uning manziliga (qabriga) borib, qachon ketgan tarixini so'rasam,

Firdavs jannatidan: "Jannat, jannat", degan ovoz keldi.

Arab alifbosidagi harflarga abjad hisobi bilan ma'lum bir raqamlar berilgan. Bunga ko'ra "jannat" so'zida "jim", "nun", "ta" harflari mavjud bo'lib ular raqamga aylanganda quyidagi sonni hosil qiladi:

$$3+50+400+3+50+400 = 906$$

906 = hijriy-qamariy yil hisobi hozirgi muomalada bo'lgan milodiy yilga aylantirilsa, 1501 yil kelib chiqadi.

Muarrix Muhammad Ya'qub temuriylar saltanatini Husayn Boyqaroning ikki o'g'li sheriklikda taxtga o'tirganidan keyin Shayboniyxon ularni yengib temuriylar saltanati tugatganini aytganidan so'ng qoraquyunli va oq quyunlilar haqida bayon qiladi. Ularning hukmronligi Ismoil Safaviy tomonidan iroqda tugatilganini bayon qiladi. Shundan so'ng "Muhammadxon Shayboniyning (siyosiy sahnaga) chiqishi" mavzusini qo'yib, Shayboniyxonning o'n ikki vosita orqali Chingizxonning katta o'g'li Jo'jiga borib taqalishini aytadi. Uning Dashti Qipchoqdan kelib, Movarounnahrni olishi, Bobur Mirzo unga shoh Ismoilning qo'shini yordami bilan qarshi chiqib, yengganini, bir yili to'rt oydan keyin Ubaydulloxon undan hukumatni tortib olgani haqida umumiy ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Ubaydulloxondan Abdulloxongacha o'tgan bir necha xonlarning nomlarini, nasabini, sanasini birma bir ko'rsatib o'tgach, Abdulloxonga alohida mavzu bag'ishlaydi. Uni "Zikri ahvoli sohibqiron Abdulloh Bahodirxon" deb nomlab, nasabini "Abullohxon ibn Iskandarxon ibn Jonibekxon ibn Xoja Muhammadxon ibn Abulxayrxon" deb ko'rsatadi. Uning jamiyat va davlat ravnaqi uchun qilgan ishlarini, harbiy yurishlarini, qurdirgan chorsu va timlarini turli she'riy ta'rixlar orqali bayon qiladi. U oltmish olti yoshda vafot qilganidan so'ng o'rniga o'g'li

Abdulmo‘minxon chiqqanini, olti oydan so‘ng miltiqdan otib o‘ldirilganini aytadi va taxtga chiqqan keyingi xonlar ro‘yxatini davom ettiradi. Taxt navbati Abulfayzxonga kelganida o‘sha davrdagi kenagas, nayman va boshqa ko‘plab turkiy urug‘, qabila va jamoalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, taxtga nomzodlar uchun kurashlar haqida to‘xtalib o‘tadi. Asar matnidan bu janjallar va urushlar natijasida iqtisodning izdan chiqqani, ocharchilik bo‘lgani, qabilalar ma‘naviy inqiroz yoqasiga kelib qolganini anglash mumkin. Bulardan tashqari Abulfayzxonning siyosiy xatolari, unvonlar va lavozimlar berishdagi kamchiliklari bayon qilingan. Davlat ishlaridagi ketma-ket yo‘l qo‘yilgan xatoliklar va ichki bo‘linish natijasida hukumat inqiroz yoqasiga kelib qoladi. Eron hukmdori Nodirshoh Buxoroni oladi va xonlikning keyingi taqdiri mang‘it amirlari qo‘liga qoladi. Mamlakatni Eron ta‘siridan qutqarish maqsadida Muhammad Rahimxon katta ishlarni amalga oshiradi, va Nodirshoh vafotidan keyin eronlik lashkarlarni o‘z yurtiga qaytarib yuboradi.

Muhammad Rahimxon Buxoro taxtiga Abulfayzxonning o‘g‘li Abdulmo‘min Sultonni ko‘taradi va unga o‘zining Oypodshoh xonim nomli qizini beradi [1.255]. Uch yil Abdulmo‘minxon o‘tib, baxtsiz hodisa tufayli vafot etadi. Shundan so‘ng Urganch sultonlari naslidan bo‘lgan Ubaydulloh Sultonni xon ko‘taradilar. To‘rt yildan keyin uni qatl qilishgach, taxtga Muhammad Rahimxonning o‘zi o‘tiradi.

Muarrir Muhammad Ya‘qub uni mang‘it mang‘it sultonlarining birinchisi deb ataydi:

بتأريخ هزار يك صد شصت هفت محمد رحيم بهادرخان بتخت بخارا جلوس كرد و او اول سلاطين منغيتيه بود او پادشاه

[1] صاحب جاه و حشمت بود و او راه روش نادرشاه را پيش گرفت

Mazmuni:

(1756) yilda Muhammad Rahim Bahodirxon Buxoro taxtiga o‘tirdi. U mang‘itiiy sultonlarning birinchi edi. U sohibi joh va hashamat bo‘lib, saltanatni boshqarishda Nodirshohning roh va ravishini tutdi”.

Muhammad Rahimxonning davlat boshqaruvida amalga ishlari va o‘rnatgan tartibini maqtab, o‘zbeklarning to‘qson ikki urug‘ini o‘zining boshqaruvi ostiga kiritganini aytadi. Uning Abulfayzxon o‘ldirilganidan keyingi o‘n bir yillik hukmronligi tugab vafot etganidan keyin nevarasi Fozil To‘raning taxtga chiqib, ikki oydan keyin uni topshirishi voqealari bayon qilingan. Shundan so‘ng taxtga Abulg‘oziyxon va Shohmurodning chiqishi, o‘rtada bo‘lib o‘tgan mansabdorlar o‘rtasidagi nizolar, taxt uchun kurashlar bayon qilinib, Shohmurod olib borgan harbiy yurishlari qatorida amalga oshirgan islohotlari to‘g‘risida ham umumiy aytib o‘tilgan.

Taxt Amir Haydarga tekkanidan keyingi voqealar boshqa amirlar davridagidan ko‘ra batafsilroq yozilgan. Amirning yigirma yetti yillik hukmronligi davrida bo‘lib o‘tgan madaniy, siyosiy voqealarni, qo‘shni davlatlar bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarni, masjid va madrasalar faoliyatini yaxshilashga qo‘shgan hissasi, ulamolarga yaratib bergan sharoitlarini aytib o‘tadi. Uning vafotidan keyin taxtga o‘g‘li Mir Husaynning zo‘rluk bilan erishgani, yetmish olti kun hukmronlik qilib, vafot etganidan so‘ng amir Haydarning o‘n sakkiz yoshli Mir Umarning taxtni egallashi voqealari qisqacha bayon qilinadi. Shundan keyingi voqealar ancha batafsil yozilgan va Nasrullohxonning taxt uchun olib borgan kurashlari, Mir Umarning yengilib, Hirotga ketishi, undan Qo‘qonga kelishi, kasallik tufayli vafot etib, o‘ligi Buxoroga olib kelib, Bahouddin Naqshband mozorida Doniyolbiy qabri yaqinida ko‘milganigacha bayon qilingan.

Muarrir Muhammad Ya‘qub keyingi amir, ya‘ni Nasrulloh davri voqealarini yozar ekan, mang‘it qavmi to‘g‘risidagi noyob ma‘lumotlarni beradi. Uning yozishicha, Muhammad

Rahimxon Movarounnahr taxtini qo'lg'a kiritgan paytidan o'zi yashab turgan vaqtgacha mang'itlar o'n ikki ming uylik jamoa bo'lganlar. Ularning bir necha firqalari bo'lgani, firqalar o'z navbatida yana bo'laklarga bo'linishi, har bo'lakning ijtimoiy mavqei to'g'risida batafsil to'xtab o'tgan. Shuningdek, ularning o'zbeklardan ekanligi aytilib, o'zbeklarning Movarounnahrda tarixi haqida ham ma'lumot berib o'tadi.

Mazkur ma'lumotlar tugagach, "Boqiy holoti amir Nasrulloh" ("Amir Nasrullohning qolgan holatlari") mavzusi bilan 1246 (1830) yil voqealarigacha yozilgan. Biz Muhammad Ya'qub Buxoriyning 1831 yilda vafot etganini mulohaza qilsak, oxirgi mavzu ham uning qalamiga mansubligi ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda asarning uslubi, badiiyati, voqea-hodisalarning tadrijiylik asosida kelgani hamda ularning asosiy mohiyatini ochib bergani muarraxning mulohazali, tarixni chuqur biladigan, ayniqsa, o'zi mansub bo'lgan mang'itlar tarixining bilimdoni ekanligini ko'rsatib turibdi.

Muhammad Ya'qub Buxoriyning "Gulshanul muluk" asari o'zidagi tarixiy voqelikning qamrovi, ko'lami, ishonchliligi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tarjima qilish O'zbekiston tarixining mang'itlar sulolasi hukmronligi davri bilan bog'liq ayrim jihatlarga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Гулшанул мулук. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик қўлёзмалар институти фонди, № АР-1507-3.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).